

O'ZBEKISTONDA INNOVATSION TADBIRKORLIKNI SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Hasanova Ruhsora Rasuljon qizi

buxgalteriya hisobi va audit yo'nalishi talabasi, iqtisodiyot fakulteti, Farg'ona davlat universiteti

ARTICLE INFO.

Kalit so'zlar: tadbirkorlik, iqtisodiyot, bashoratlash, samaradorlik, innovatsiya.

Annotatsiya

Mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning tutgan o'ri, uning innovatsion shakllanishi va rivojlanishi jarayonlarini bozor iqtisodiyoti sharoitida o'rganish, iqtisodiyotning investitsiyaga bo'lgan talabini ta'min etish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish asosida uning afzalliklari, milliy iqtisodiyotdagi faoliyatni takomillashtirish.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2023 LWAB.

Yevropa va Markaziy Osiyo davlatlaridagi iqtisodiy ko'rsatkichlarning pasayishiga qaramasdan O'zbekiston Respublikasi taraqqiyot sari ildam qadam tashlab kelmoqda.

Iqtisodiy taraqqiyotga erishishning yangi sifat bosqichiga o'tish yuzasidan iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish va modernizatsiyalash bo'yicha belgilangan ustuvor yo'nalishlarni amalga oshirilib borishi natijasida mamlakatimiz Birinchi Prezidenti I.A.Karimov iborasi bilan aytganda «... islohotlar natijasida yalpi ichki mahsulotimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi 2000 yildagi 31 foizdan bugungi kunda 56,7 foizga etgani yoki 1,8 barobar oshganini alohida ta'kidlashni istardim. Hozirgi paytda ushbu sohada jami sanoat mahsulotlarining uchdan bir qismi, qishloq xo'jaligi mahsulotlarining 98 foizi ishlab chiqarilmoqda. Ish bilan band jami aholimizning 77 foizdan ortig'i – shunga e'tibor bering – mazkur tarmoqda mehnat qilayotgani, o'z peshona teri bilan nafaqat o'z oilasini boqayotgani, balki mamlakatimiz boyligiga boylik qo'shayotgani, avvalo, mustaqillik bizga ochib bergan imkoniyatlarning yaqqol isboti, desam, ayni haqiqatni aytgan bo'laman».

Shunday ekan, bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev ta'kidlab o'tganlaridek, —Bu - xususiy mulk va tadbirkorlikni yanada rivojlantirish va ularning ta'sirchan himoyasini ta'minlashdirl.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.Karimov mamlakatimiz taraqqiyotini kuchaytirish va xalqimiz farovonligini yanada oshirish borasida erishilayotgan yutuqlar haqida to'xtalib: —Ohirgi yillarda va o'tgan yili mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirish borasida qo'lga kiritilgan natijalar Xalqaro valyuta jamg'armasi, Jahon banki, Osiyo taraqqiyot va boshqa nufuzli

Ta'kidlash joizki, bugungi kunda iqtisodiyotimizning etakchi lokoma-tivi deb e'tirof etilayotgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning roli va o'ri tobora mustahkamlanib borayotganining o'zi iqtisodiyotimiz-ning tarkibida bo'layotgan ijobiy o'zgarishlardan dalolat beradi. Shuningdek, 2015 yil 27 oktyabrda Jahon banki va Xalqaro moliya korporatsiyasi tomonidan e'lon qilingan «Biznesni yuritish 2016: tartibga solish sifati va samaradorligini baholash» hisobotida qulay ishbilarmonlik muhiti parametrlari bo'yicha O'zbekiston dunyoning 189 mamlakati orasida 87-o'rinni egalladi.

Albatta mazkur sohada qo'lga kiritilgan yutuqlar bilan bir qatorda, bugun unga to'siq bo'layotgan va uning rivojlanishiga xalaqit berayotgan muammolarni yana bir bor batafsil, chuqur tahlil qilish hamdaqilingan tahlillar asosida aniq, strategik qarorlar qabul qilish zaruriyatini tug'dirmoqda. Shunday ekan, iqtisodiyotni


modernizatsiyalash sharoitida iqtisodiyotimizning lokal tarmoqlaridan sanalgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subektlari faoliyatini rivojlantirish tendentsiyalarini chuqur taxlil qilish hamda mazkur sohani yanada davlat tomonidan qo'llab quvvatlash borasidagi chora-tadbirlar majmuasini tubdan takomillashti-rish fikrimizcha, bugungi kundagi eng dolzarb masalalardan biridir.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishdagi ahamiyati, afzalliklari va ustuvorliklarida quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- nisbatan kam mablag' sarflagan holda, yangi ish o'rinlarini yaratishga xizmat qilib, aholi bandlik muammosini barham topishiga, turmush tarzini yaxshilanishiga hamda aholi daromadlarini oshishiga olib keladi;
- moddiy, moliyaviy va mehnat resurslarini samarali taqsimlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi bu o'z navbatida real va moliya sektorlari mutanosibligi ta'minlaydi hamda iqtisodiy o'sish uchun zamin yaratadi;
- jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni kafolatlovchi
- tadbirkorlar qatlamini shakllantirib, iqtisodiy jihatdan faol bo'lgan aholi ulushini ko'paytiradi;
- ishlab chiqarishga yangi texnika va texnologiyalarni qisqa muddatlarda jalb etib, moddiy-texnika bazasini mustahkamlashga zamin yaratadi. Innovatsiyalarni jalb etilishi iqtisodiyotda raqobat muhitini shakllantirilishiga olib keladi;
- turli bozorlarda raqobatbardosh innovatsion mahsulot ishlab chiqarilishiga va iste'molchi didiga mos innovatsion xizmat turlarini yaratilishiga zamin yaratadi;
- iste'mol bozorini tovarlar va yangicha xizmat turlari bilan to'ldirish orqali byudjetga soliq tushumlari hajmini keskin oshirishga ta'sir ko'rsatadi.

Ta'kidlash joizki, bugungi kunda kichik korxonalar faoliyatini rag'batlantirish maqsadida yildan-yilga takomillashib borayotgan me'yoriy - huquqiy asos yaratilmoqda. Misol uchun, Prezidentimizning 2015 yil 28 sentyabrdagi «Tadbirkorlik sub'ektlariga «yagona darcha» tamoyili bo'yicha davlat xizmatlari ko'rsatish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qaroriga muvofiq 2016 yilning 1 yanvaridan boshlab 16 turdagi davlat xizmatlari tuman va shahar hokimliklari huzuridagi tadbirkorlik sub'ektlarini ro'yxatdan o'tkazish inspeksiyalari negizida tashkil qilinadigan tadbirkorlik sub'ektlariga «yagona darcha» tamoyili bo'yicha davlat xizmatlarini ko'rsatish markazlari orqali amalga oshiriladi.

Davlat tomonidan mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning amalda qo'llab quvvatlanishi oqibatida bugungi kunga kelib mazkur sohaning jadal sur'atlarda rivojlanishiga olib keldi. 1-rasm ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, 2000 yilda YaIMga nisbatan 31 foizni tashkil etgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi, 2015 yilga kelib bu sohaning ulushi 56,7 foizga etganligi fikrimiz isbotidir.



1-Rasm. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning o'sish tendentsiyalari

Shuningdek, oxirgi 15 yil davomida respublika bo'yicha jami korxonalar sonidagi kichik korxonalar va

mikrofirmalar salmog'i ham 2000 yilda 13,1 foizdan 2015 yilda 35,1 foizni tashkil etib, qariyb 2,7 foiz o'sish tendentsiyasiga ega bo'lgan. E'tiborlisi, mamlakat aholi turmush tarzi va ularning daromadla-ning ortishiga ham kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning o'rni tobora ortib bormoqda. Jumladan, kichik biznesda band bo'lganlar soni 2000 yilda 4,3 mln. kishini tashkil etgan bo'lsa, 2015 yilga kelib, bu ko'rsatkich 10,2 mln. kishini tashkil etgan. 2015 yilga kelib o'sish qariyb 2,4 martaga ko'paygan. Albatta bunday tendentsiya aholi turmush tarzi va farovonligini yaxshilanishida munosib xizmat qilgan.

1-jadval Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subektlarida bandlik darajasi


2.1-jadval

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subektlarida bandlik darajasi²⁵.

Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	yillar							
		2000	2005	2010	2011	2012	2013	2014	2015
Kichik biznesda bandlar soni	mln. kishi	4,3	6,7	8,6	8,9	9,3	9,5	9,9	10,2
Iqtisodiyotda band bo'lganlar umumiy bandlarga nisbatan	%	42,6	65,5	74,3	74,8	75,7	76,0	77,2	78,1
Kichik korxonalar va mikrofirmalarda bandlar soni	mln. kishi	0,6	1,4	2,0	2,3	2,4	2,3	2,3	2,4

2.1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, 2000-2015 yillar oralig'ida iqtisodiyotda band bo'lganlar umumiy nisbatida ham o'sish tendentsiyasi kuzatilgan.

1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, 2000-2015 yillar oralig'ida iqtisodiyotda band bo'lganlar umumiy nisbatida ham o'sish tendentsiyasi kuzatilgan. Shunga mos ravishda kichik korxonalar va mikrofirmalarda bandlar sonida ham o'sish kuzatilgan, ya'ni 2000 yilda 0,6 mln. kishini tashkil etgan bo'lsa, 2015 yilga kelib 2,4 mln kishiga etgan. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda bandlar soni bilan kichik korxonalar va mikrofirmalarda bandlar sonini taqqoslaydigan bo'lsak, bular o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rishimiz mumkin, ya'ni kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda bandlar soni, kichik korxonalar va mikrofirmalarda bandlar soni mutanosib ravishda o'sish tendentsiyasiga ega bo'lgan. Mazkur mutanosiblik 2-rasmda yaqqol namoyon bo'lgan.



2-rasm. Kichik biznes va kichik korxonalar va mikrofirmalarda bandlar sonining mutanosib tarzda o'sish tendentsiyasi

Shuningdek, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiyot tarmoqlaridagi ulushi yillar sari o'sish tamoyiliga ega bo'lib, bu o'sish asosan qishloq xo'jaligida kuzatilgan. 2005 yil iqtisodiyot tarmoqlarida qurilish sohasi 49,4 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2015 yilga kelib esa bu ulush 71 foizni tashkil etgan. Iqtisodiyot tarmoqlarida xizmat ko'rsatish sohasiga kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi kamayish tendentsiyasi kuzatilgan. 2005 yilda 52,5 foizni tashkil etgan ulush salmog'i 2015 yilda 47 foizga tushib ketgan. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiyot tarmoqlaridagi ulushining faqat xizmat ko'rsatish sohasi-dagi kamayish tendentsiyasini hisobga olmasak, qolgan barcha tarmoqlaridagi ulushida o'sish tendentsiyasi kuzatilgan.

Shuningdek, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning mamlakatimiz import tovarlaridagi umumiy ulushida

xissasi 2000 yildan boshlab o'sish tendentsiyasiga ega bo'lib, bu o'sish 2015 yilga kelib 44 foizni tashkil etib, qariyb 1,6 foizga o'sgan. Mamlakatimiz umumiy eksport salohiyatida kichik biznes va xususiy zamonaviy global iqtisodiyot tadbirkorlar va ayniqsa kichik biznes uchun cheksiz imkoniyatlar taqdim etmoqda. Amerika Qo'shma Shtatlarida kichik biznes yalpi ichki mahsulotning katta qismini beradi, yangi ish o'rinlarining yarmidan ko'pini yaratadi, asosiysi, yiliga 350–400 mlrd. dollarlik mahsulotini eksport qiladi. Jahon sanoatining boshqa bir markazi – Germaniyada bu sohada mehnatga yaroqli aholining 70%dan ortig'i band. Shu bilan birga u erda turli faoliyatning 90 dan ortiq xilini qamrab olgan hunarmandchilik kichik korxonalarining katta miqdori (500-600 ming) ish olib boradi. Ularning qariyb chorak qismi – mamlakat tashqi savdosi barcha hajmining 17%ini ta'minlovchi eksportchilardir.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida ham kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash bu – tuzilmalarning moddiy texnika asosini barpo etish, ularga ko'maklashish, tashqi iqtisodiy faoliyatini yuksaltirish, ijtimoiy-ruhiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, sug'urta tizimi, zaruriy axborotlar bilan ta'minlash, tashqi iqtisodiy faoliyatini yuksaltirish kabi omillar orqali amalga oshirilib kelinmoqda. E'tiborga olish kerakki, xorij mamlakatlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni asosan mikromoliyaviy muassasalar faol qo'llab quvvatlaydilar. Bugungi kunda mazkur muassasalarda qariyb 16 mln. kishi faoliyat ko'rsatadi.

Albatta yuqorida keltirilgan ya'ni mamlakatimiz kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatida erishilgan ijobiy natijalar bilan bir qatorda, xususiylashtirilgan korxonalarda ishlab chiqarish vositalarining ma'naviy va jismoniy eskirganligi, jalb qilinayotgan investitsiyalar asosan savdo, umumiy ovqatlanish, xizmat ko'rsatish sohaslariga yo'naltirish darajasining yuqoriligi, ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanayotgan tadbirkorlik sub'ektlarida marketing tadqiqotlarining samarali yo'lga qo'yilmaganligi kabi kamchiliklar ham mavjud.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, tadbirkorlarni ishlab chiqarish bino va boshqa vositalar bilan ta'minlashda bo'sh turgan binolar, insho-otlar, ombor va savdo joylarini vaqtincha foydalanishga topshirishning samarali mexanizmining ishlab chiqilishi maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, Savdo-sanoat palatasi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining investitsiya loyihalarini amalga oshirishini barcha bos-qichlarida (loyihaviy g'oyadan boshlab, uning ishlab chiqilishi, banklarda ekspertizadan o'tkazilishi, olingan kreditlarning sarflanishi va ularning qaytarilishi) yordam berishi, kuzatib borishi va himoya qilishi hamda hududlar darajasida investitsiya loyihalarini ishlab chiqish jarayonida ularga amaliy yordam ko'rsatishi maqsadida hududlarda axborot-tahliliy bazani ishlab chiqishi maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Iminova D., Kichik biznes faoliyatini rivojlantirishning iqtisodiyotimizdagi ahamiyatini, —Iqtisodiyot va ta'liml 2014y, №5
2. Olingan ma'lumotlar asosida magistrant tomonidan ishlab chiqildi.
3. G.Narzullayeva —Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining mavjud iqtisodiy muammolarini, —Iqtisodiyot va ta'liml jurnali, 2/2015, 52-56 bet
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xususiy mulk, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni ishonchli himoya qilishni ta'minlash, ularni jadal rivojlantirish yo'lidagi to'siqlarni bartaraf etish chora-tadbirlari to'g'risida" gi farmoni, 15.05.2015 yil PF-4725-son.
5. Салимжонов, З. С. Қ., & Турғунов, Э. Қ. Ў. (2022). Кичик бизнес ва хусусий тadbirkorlik субъектларининг аҳоли турмуш фаровонлигини яхшилаш, мамлакат ва худудлар экспорт салоҳиятини оширишдаги ўрни. Academic research in educational sciences, 4(1), 142-151.
6. қизи Қодирова, Г. И., & Жамолитдинова, М. Д. (2022). Ўзбекистон худудларидаги кичик бизнес субъектларини тижорат банклари томонидан кредитлаш сиёсатини такомиллаштириш. Results of National Scientific Research International Journal, 1(7), 49-57.
7. Тешабаева, О. Н., & Ташматова, Н. Х. (2023). Ўзбекистон республикасида аграр секторда тadbirkorlik ривожланишининг ўзига ҳос жиҳатлари. Academic research in educational sciences, 4(1), 22-30.
8. Тешабаева, О. Н. (2019). Развитие семейного предпринимательства как фактор повышения занятости населения. In Наука и образование в обеспечении устойчивого развития региона в условиях перехода

к цифровой экономике (pp. 190-193).

9. Гозиев, Муроджон Шокиржонович, & Хасанова, Рухсора Расулжон Кизи (2023). Создание модели интеграции кластеров для реализации инновационных проектов. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3 (2), 59-64.
10. Тешабаева, О. Н. (2022). Аҳоли молиявий саводхонлиги ўсишининг тадбиркорлик фаолияти ва даромадлар даражасининг ошишига таъсири. *Gospodarka i Innowacje.*, 29, 348-355.
11. Тешабаева, О. Н. (2020). Аҳоли даромадларини оширишда оилавий тадбиркорликни ривожлантириш муаммолари. *Scientific–technical journal of FerPI*, 201-203.
12. Юлчиев, А., Эрматов, Р., & Мохинур, Ж. (2022). Мамлакатимизда кичик бизнес ва тадбиркорликни ривожлантириш ва аҳоли бандлигини таъминлаш. *Research and Education*, 1(2), 104-111.
13. Тешабаева, О. Н. (2019). Развитие семейного предпринимательства как фактор повышения занятости населения. In *Наука и образование в обеспечении устойчивого развития региона в условиях перехода к цифровой экономике* (pp. 190-193).
14. Teshabaeva, O., & Yulchiev, A. (2022). Innovative marketing strategy aimed at maximizing the development of the tourist industry in Uzbekistan. *Asia pacific journal of marketing & management review issn: 2319-2836 Impact Factor: 7.603*, 11(05), 1-6.
15. Асилжон Ортикали Угли Юлчиев, & Дилмурод Нуманович Зайлобиддинов (2022). ВОПРОСЫ ЦИФРОВИЗАЦИИ БАНКОВСКОЙ СИСТЕМЫ В УЗБЕКИСТАНЕ. *Academic research in educational sciences*, 4 (Issue 1), 91-100.
16. Jamoliddinova, M. D. (2023). Strategy for the development of innovative tourism services in the field of marketing in Uzbekistan. Publishing House “Baltija Publishing”.
17. Юлчиев, А. О. (2022). Ўзбекистон иқтисодиётини ривожлантиришда бюджет ташкилотларини молиялаштириш. *Modern scientific research achievements*, 1, 6-11.
18. Тешабаева, О. Н., & Юлдашева, Д. А. (2022). Ўзбекистонда банк хизматлари бозори бошқаруви ва ривожланишининг хусусиятлари. *Results of National Scientific Research International Journal*, 1(3), 91-97.
19. Ergashovna, A. O., & Eshmuhammadovna, S. D. (2022). Efficiency of using modern management methods in management of enterprises. *Eurasian Journal of Law, Finance and Applied Sciences*, 2(2), 107-114.
20. Dilshod Anvarjanovich Ismailov, & Oybek Utbasarov (2021). KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK. *Scientific progress*, 2 (7), 223-229.